

MANG'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI.

Gulyamov Alisher Azizovich

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filiologiya” kafedrası o‘qituvchisi.

aligulyamov1997@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14720026>

Annotatsiya. *Ashtarxoniylar hukmronligining so‘nggi davriga kelib, mamlakatdagi siyosiy vaziyat keskinlashdi. Mahalliy hokimlardan ayrimlari Abulfayzxonga qarshi kurash olib boradilar. Amalda davlat boshlig‘i bo‘lib qolgan Muhammad Rahimbiy 1756-yilda ashtarxoniylar sulolasining barcha vakillarini yo‘q qilib, rasman davlat hukmdoriga aylandi.*

Kalit so‘zlar: *Abulfayzxon hukmronligi, monarxiya, Nodirshoh harbiy yurishi, Hakimbiy, vassal xon, Amir – ul umaro, xonlik rutbasi, mahalliy hokimlar isyoni, Karmana, Buxoro amirligi.*

STATE MANAGEMENT, STRUCTURE AND INTERNAL POLITICS DURING THE MANGHIT DYNASTY.

Abstract. *By the end of the Ashtarkhanid rule, the political situation in the country became tense. Some of the local governors fight against Abulfayz Khan. In 1756, Muhammad Rahimbi, who became the de facto head of the state, destroyed all the representatives of the Ashtarkhanid dynasty and officially became the ruler of the state.*

Key words: *Abulfayzkhan's rule, monarchy, Nadirshah's military campaign, Hakimbi, vassal khan, Amir-ul Umoro, khan rank, rebellion of local governors, Karmana, Bukhara Emirate.*

ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ, СИСТЕМА И ВНУТРЕННЯЯ ПОЛИТИКА В ЭПОХУ ДИНАСТИИ МАНГИДОВ.

Аннотация. *К концу правления Аштар-ханства политическая ситуация в стране стала напряженной. Некоторые местные правители воевали против Абулфайз-хана. Мухаммад Рахимбий, ставший фактическим главой государства, в 1756 году устранил всех представителей династии Аштар-хана и официально стал правителем государства.*

Ключевые слова: *правление Абулфайз-хана, монархия, военный поход Надир-шаха, Хакимбий, вассальный хан, Амир-уль-Умар, ханское звание, восстание местных правителей, Кармана, Бухарский эмират.*

Buxoro amirligi bu davrda monarxiya tipidagi davlat bo‘lib, amir cheklanmagan hokimiyatga ega edi.¹

¹Alimova D., Rashidov U. XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar. Buxoro, 2009. -B.20.

Buxoro amirligini XIX asr oxirlarida mang'itlardan bo'lgan amirlar boshqarardi. Bu davrga kelib ya'ni, Ashtarxoniylar hukmronligining so'nggi davriga kelib, mamlakatdagi siyosiy vaziyat keskinlashdi, markaziy hokimiyat zaiflashishi bilan birga qabilalar o'rtasidagi o'zaro nizolar ham avj oldi. Bu holat Ubaydullaxon (1702-1711 yy), ayniqsa Abulfayzxon hukmronligi yillarida yaqqol namoyon bo'ldi. Mahalliy hokimlardan ayrimlari, xususan Samarqand hokimi Rajab sulton, Shahrisabz hokimi Ibrohimbiy kenagas, Karmana hokimi Abdulkarim bahrinlar markaziy hokimiyatni o'z ta'siriga olish va uni ag'darib tashlash maqsadida bir necha yillar davomida harbiy harakatlarni avj oldirib, Abulfayzxonga qarshi kurash olib bordilar.

Buxoro xonligidagi ichki siyosiy parokandalikdan foydalangan Eron shohi Nodirshoh Buxoroga harbiy yurish uyushtirdi. Uning buyrug'i bilan o'g'li Rizoqulixon 12 ming qo'shin ko'magida Qarshiga hujum boshladi. Qarshi va Samarqand qo'shinlarining birgalikdagi qattiq qarshiligidan so'ng 1736–1737 yillarda bo'lib o'tgan eronliklarning yurishi qaytarildi. Ikkinchi yurishga o'zi boshchilik qilgan Nodirshoh 1740-yilda Qarshi hokimi Muhammad Hakimbiy mang'it bilan ittifoq tuzishga erishadi.

Hakimbiy vositachiligida Abulfayzxon bilan aloqa o'rnatishga erishgan Nodirshohni Buxoro hukmdorlari hurmat bilan kutib olishga majbur bo'ladilar. Muzokaralar chog'ida Hakimbiyga katta imtiyozlar va xuquqlar berilib, Abulfayzxon amalda vassal xonga aylanib qoldi. Ayni vaqtda Muhammad Hakimbiy mang'itning boshqaruvdagi mavqei va ta'siri ortib bordi, o'g'li Rahimbiy esa Nodirshoh xizmatiga o'tgan edi.

1743-yilda Muhammad Hakimbiy vafot etib uning ta'ziasiga Nodirshoh ruxsati bilan o'g'li Rahimbiy keladi. Marosimlar tugagach yana Eronga qaytadi. Biroq, 1745-yilda Buxoro xonligida Abulfayzxonga qarshi qo'zg'olonlar avjiga chiqqach, Nodirshoh ularni bostirish maqsadida Muhammad Rahimbiyni yuboradi. U qo'zg'olonlarni bostirgach, Abulfayzxon tomonidan "Amir – ul umaro" lavozimiga ko'tariladi. Rahimbiyning xonlikdagi nufuzi ortib bordi.

1747-yil yozida Nodirshoh Mashhad yaqinida jiyani Aliqulixon tomonidan o'ldirildi. Bu vaziyatdan foydalangan Muhammad Rahimbiy Abulfayzxonga qarshi fitna uyushtirib, uni qatl qildirdi. Biroq mavjud an'analarga asosan u xonlik taxtini qo'lga kirita olmadi va ashtarxoniylardan Abdulmo'min va Ubaydulla Sultonlar rasman xon etib e'lon qilindi. Amalda davlat boshlig'i bo'lib qolgan Muhammad Rahimbiy 1756-yilda ashtarxoniylar sulolasining barcha vakillarini yo'q qilib, rasman davlat hukmdoriga aylandi. Xonlik rutbasiga rasman erisha olmagan Rahimbiy amir unvonida davlatni idora qila boshladi va shu vaqtdan boshlab davlat ham Buxoro amirligi deb yuritila boshlandi, davlat tepasiga yangi sulola – Mang'itlar sulolasi keldi va 1920-yilgacha hokimiyat tepasida turdi.²

² Alimova D., Rashidov U. XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar. Buxoro, 2009

Muhammad Rahimbiy eng avvalo davlatning hududiy yaxlitligini saqlab qolish va ichki siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish maqsadidagi siyosatni yurita boshladi. Asosini yollanma askarlar (qisman afg'onlar) tashkil etuvchi kuchli qo'shin yordamida Sharqiy Buxoro, Hisor, Urgut, Panjikent, O'ratepa, Xo'jand, Miyonko'l atrofida yashovchi xitoy-qipchoqlarni bo'ysundirish uchun bir necha yil davomida kurash olib borildi.

Muhammad Rahimxon vafot etgach (1758-y), hokimiyat tepasiga Doniyolbiy keldi. U mahalliy hokimlar isyonidan xavfsirab, o'zi otaliq mansabida qolgan holda rasmiy hukmdor sifatida taxtga ashtarxoniy Abulfayzxonning nabirasi Abdulg'ozini o'tkazadi. Biroq bu Doniyolbiyga mamlakat tinchligini saqlab qolishga imkon bermadi. Qisqa vaqt ichida markaziy hokimiyat zaiflashib O'ratepa, Jizzax, Xatirchi, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, G'uzor va boshqa bekliklar hokimiyatga bo'ysunmaslik bilan bir vaqtda unga qarshi kurash ham olib bordilar.

Garchi Doniyolbiy mahalliy hokimlarga qarshi kurashib, ularni bir necha marta bo'ysundirishga erishsada, biroq mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy parokandalikni bartaraf eta olmadi. Oqibatda 1785-yilda taxtdan voz kechib, o'g'li Shohmurodga topshirishga majbur bo'ldi. Abulg'ozini taxtdan tushirgan Shohmurod (1785 – 1800 yy) amir sifatida davlatni boshqardi.

Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida markazlashish jarayonlari qaytadan yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi uchun asos bo'ldi. Markaziy hokimiyat mustahkamlandi, siyosiy va iqtisodiy sohada, soliqlar borasida bir qator islohotlar o'tkazildi.

Amir Shohmurod vafotidan so'ng taxtga o'g'li Haydar (1800–1825 yy) o'tirdi. U ham hukmronligining dastlabki vaqtlaridanoq markaziy hokimiyatni kuchaytirishga kirishadi. Bu vaqtda buxoro amirligi Zarafshon va Qashqadaryo vohalari, hozirgi Turkmanistonning sharqiy qismi, Marv, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent, Urgut va shimoliy-sharqda Turkistongacha bo'lgan hududlar ustidan hukmronlik qilar edi.³

Amir Haydar ichki vaziyatni barqarorlashtirish bilan birga Xiva hamda Qo'qon xonliklari bilan ham hududiy nizolarni bartaraf etishga majbur bo'ldi. 1804 va 1818 – 1819 yillarda Xiva xonligi bilan urush olib borgan bo'lsa, Qo'qon xonligi bilan harbiy to'nashuvlar uzoq davom etdi. Ikki davlat chegaralari bo'ylab joylashgan Jizzax va O'ratepa bir necha bor qo'ldan-qo'lga o'tib turgan bo'lsa, ayni vaqtda Toshkent, Turkiston, Xo'jand uchun ham shiddatli janglar olib borildi. Qo'qon xoni Umarxon bilan tuzilgan sulh ham ikki o'rtadagi urush harakatlarni to'xtatib qola olmadi.

Ayni vaqtda markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan Shahrisabz hokimlari ham uzoq vaqt Amir Haydarga qarshi kurash olib bordilar.

³ Alimova D., Rashidov U. XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar. Buxoro, 2009

Ularning qarshiligi amir Nasrullo hukmronligi yillarida ham davom etdi. Shunga qaramay amir Haydar o'zidan avvalgi amirlarga nisbatan boshqaruvda qat'iy siyosat olib bordi va ma'lum darajada davlatning siyosiy va iqtisodiy barqarorlashuviga erisha oldi.

Amir Haydar vafotidan so'ng (1826 y) birin-ketin taxtga o'tirgan o'g'illari Husayn (2 oy) va Umar (4 oy) o'z birodarlari Nasrullo tomonidan qatl ettiriladi va amalda buxoroning yagona hukmdori Nasrulloxon (1826-1860 yy) bo'lib qoladi. Bu vaziyatda Shahrisabz va Kitob hokimlari o'z mulklarini mustaqil deb e'lon qiladilar. Amir Nasrulloh mamlakatning hududiy yaxlitligini tiklash maqsadida shafqatsiz kurash olib boradi va 1856-yilga kelibgina o'z maqsadiga erishadi.

Ayni vaqtda Xiva xonligi va Qo'qon xonliklari bilan ham kurash olib borgan amir Nasrulloh 1842-yil Qo'qon xonligini bosib olishga va xon Sulton Maxmudxon hamda Muhammad Alixonlarni qatl ettirishga erishadi.

Keyingi yillarda davlatni boshqargan amir Sayyid Muzaffar (1860-1885 yy), amir Sayyid Abdulahadxon (1885 – 1910) va amir Sayyid Olimxon (1910 – 1920) lar hukmronligi davrida Qo'qon xonligi, Xiva xonligi bilan tashqi nizolar davom etib turdi. Bu davrda ayniqsa Rossiya imperiyasi bilan tashqi siyosiy munosabatlar keskinlashdi va bir necha marta Jizzaxda, Erjarda, Cho'ponotada, Zirabuloqda bo'lib o'tgan to'qnashuvlardan so'ng 1868-yilda Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi tomonidan harbiy yo'l bilan bosib olindi va qaram davlatga aylantirildi. 1860-yilda Buxoro taxtiga Amir Muzaffar o'tiradi. Mang'itlar sulolasidan bo'lgan bu amirning otasi Nasrulloxon davrida Karmanaga hokimlik qilgan edi. Amir Nasrullo vafotidan so'ng, Muzaffar Buxoro taxtiga o'tiradi. Otasi tomonidan Karmanaga surgun qilingan kishilarni Buxoroga qaytarib, yuqori lavozimlarga tayinlaydi.

REFERENCES

1. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
2. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
3. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
4. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.

5. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPIISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
6. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
7. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
8. Shodiyeva, S. S., & Qamariddinova, G. A. Q. (2022). Buxoroda islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlar. *Science and Education*, 3(12), 219-225.
9. Akmalovna, Q. G., & Asror, A. A. (2023). Formation of Religious Ceremonies. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(3), 167-172.
10. Saloxov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). BUXORO JADIDLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID G'OYALARINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 55-69.
11. Salokhov, A. K. (2024). THE YOUNG PEOPLE ARE FORMED, THE ENLIGHTENED-INFORMATORS OF BUKHO USE YOUR IMAGINATION STYLE BASICS. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 16-19.
12. Salokhov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). SOCIO-PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL BASIS OF THE CONCEPT OF TOLERANCE. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 200-213.
13. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
14. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
15. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
16. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
17. Yunus ogli, H. M. (2023). QADIMGI MESOPOTAMIYA SHAHAR-DAVLATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR.

18. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(11), 154-159.
19. Vahobovna, S. G. (2024). XX ASR BOSHLARIDA XITOYNING YAPON AGRESSIYASIGA QARSHI KURASHI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(5), 264-273.
20. Srojeva, G. (2024). 1929-1932-YILLARDAGI JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA YAPONIYA. NRJ, 1(2), 118-128.
21. Vahobovna, S. G. (2024). Canada during the world economic crisis of 1929-1933. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(4), 48-54.
22. Srojeva, G. (2024). ATTENTION PAID TO PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN NEW UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 3(2), 258–266. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30750>
23. Srojeva, G. (2024). THE CANADIAN ECONOMY DURING THE GLOBAL ECONOMIC CRISIS. Modern Science and Research, 3(2), 57–63. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30678>
24. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIX FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
25. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
26. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 149-155.
27. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. Modern Science and Research, 3(12), 852-858.
28. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
29. Sayfutdinov F. (2024). ILLUMINATION OF THE SPIRITUAL LIFE OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN RESEARCH. Journal of Universal Science Research, 2(5), 441–452. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/34891>

30. Sayfutdinov F. (2024). MANG'IT AMIRLARI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI ME'MORCHILIK SOHASI RIVOJI. *Modern Science and Research*, 3(10), 620–629. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/45335>
31. Ilniyazovich, S. F. (2024). Historiography of Various Expeditions and their Results in the Regions Inhabited by Karakalpaks in the First Half of the 20th Century. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 159-165.
32. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
33. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
34. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
35. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
36. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
37. Nozimov, J. T. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578.
38. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
39. Nozimov, J. (2019). The use of the trainings in developing intercultural competence in students. In *Психология образования будущего: От традиций к инновациям* (pp. 112-114).
40. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(10), 49-51.

41. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. (2024). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1502>
42. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
43. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
44. Boltaev, O. (2024). BUKHARA'S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
45. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
46. Umidjon Xayrullayev. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13958464>
47. Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li. (2024). LEGITIMACY OF RULERSHIP IN THE STATE OF CENTRAL ASIA AND IRAN IN ANCIENT TIMES AND THE EARLY MIDDLE AGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222295>
48. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSIYASI. *Modern Science and Research*, 3(12), 843–851. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58469>
8. BIRINCHI RADIO EHTIYOTLAR TARIXIDAN. (2024). *MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE*, 2(4), 657-663. <https://universalpublishings.com/index.php/mpptp/article/view/5240>
49. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HOKIMLIKLARINING MAVQEYI. *Modern Science and Research*, 3(12), 339–343. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58055>
50. Xayrullayev Umidjon. (2024). RELIGIOUS AND THREATS IN MEDIASPACE. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 593–595. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11311154>

51. Юсупович, К. С. (2024). КРАТКИЙ ОБЗОР НА ВЗАИМООТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА И ДВИЖЕНИЯ “ТАЛИБАН”, НА ФОНЕ ЗАХВАТА ТАЛИБАМИ ВЛАСТИ В АФГАНИСТАНЕ В 2021 ГОДУ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(11), 227–229. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/12432>
52. Yusupovich, K. S. (2024). Abu Hafs Kabir and the Spread of the Hanafi Madhhab in Transoxiana. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 204–207. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4079>
53. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
54. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
55. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
56. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA–QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
57. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
58. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
59. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
60. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.